

VALIEV Botir

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
kafedra dotsenti, falsafa fanlari nomzodi*

ADOLAT – GLOBAL HAMJAMIYATNING DINIY VA DUNYOVIY QADRIYATI

СПРАВЕДЛИВОСТЬ – РЕЛИГИОЗНАЯ И СВЕТСКАЯ ЦЕННОСТЬ ГЛОБАЛЬНОГО СООБЩЕСТВА

JUSTICE IS A RELIGIOUS AND SECULAR VALUE OF THE GLOBAL COMMUNITY

Annotatsiya: Adolat axloqiy, diniy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida turli soha izlanuvchilari tomonidan har tomonlama tadqiq etib kelinadi. Mazkur maqolada adolatning global dunyoda ham diniy, ham dunyoviy jihatdan e'tirof etilayotgan muhim qadriyatga aylanib borayotgani tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: adolat, global, diniy, dunyoviy, islom, xristianlik, qadriyat, axloq.

Аннотация: Справедливость как нравственная, религиозная, политическая, правовая, социально-экономическая категория всесторонне изучалась исследователями разных областей. В данной статье анализируется признание справедливости как важной, одновременно религиозной и светской ценности в глобальном мире.

Ключевые слова: справедливость, глобальный, религиозный, светский, ислам, христианство, ценность, нравственность.

Annotation: Justice as a moral, religious, political, legal, and socio-economic category has been comprehensively studied by researchers in various fields. This article analyzes the recognition of justice as an important, both religious and secular value in the global world.

Keywords: justice, global, religious, secular, Islam, Christianity, value, morality.

KIRISH

Adolat - axloqiy, huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, aksiologik va umuman ko'pqirrali falsafiy kategoriya sifatida ko'plab talqinlariga ega. U insonning dahlsiz huquqlariga oid tarixan

o'zgaruvchan tasavvurlar bilan bog'liq munosiblik, mutanosiblik, muvofiqlik, muvozanatlik munosabati to'g'risidagi tushunchadir. Adolat - inson yoki ijtimoiy guruhning jamiyat hayotidagi amaliy roli va ularning ijtimoiy ahvoli orasidagi, ularning huquqlari va majburiyatlari, qilgan ishi va mukofoti, mehnati va taqdirlanishi, jinoyati va jazosi, kishilarning xizmatlari va ularning ijtimoiy e'tirof etilishi orasidagi o'zaro mutanosiblik talabini nazarda tutuvchi umumiy mezon, qoida, tamoyildir.

Adolat tamoyili turli davrlarda, turli sivilizatsiyalar va madaniyatlarda turlicha mazmun kasb etgan. Bu tendensiya ijtimoiy voqelikdagi o'zgarish va taraqqiyot jarayonlariga mos ravishda rivojlanib boruvchi ijtimoiy ongning barcha sohalariga xosdir. Shunday ekan, davrlarning o'zgarishi va ijtimoiy muhitning ta'siri ma'naviy-axloqiy tamoyillarning ham transformatsiyasiga sabab bo'laveradi. Bu qonuniyat ayniqsa, ijtimoiy jarayonlar shiddat bilan jadallashib borayotgan bugungi global dunyoda yanada yorqinroq namoyon bo'lmoqda.

ASOSIY QISM

Globallashuv fenomeni vujudga kelganiga va ilmiy doirada iste'molga kiritilganiga ko'p vaqt bo'lganicha yo'q. Lekin, ushbu fenomen tarixan qisqa davr ichida insoniyatning asrlar davomida shakllanib kelgan axloqiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy ongi, qadriyatlari tizimi va turmush tarzida tub sifat o'zgarishlariga olib keldi. Globallashuv jahonning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy jihatdan integratsiyalashuvi va unifikatsiyalashuvi jarayoni bo'lib, dastavval iqtisodiy jihatdan hamkorlikning o'ziga xos ko'rinishi, turli mamlakatlar va mintaqalarning iqtisodiy munosabatlarida umumiy manfaatlar yo'lida tabiiy ravishda yaqinlashuvi sifatida talqin qilingan. Keyinchalik esa globallashuv jarayoni ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oldi. Endilikda, globallashuv ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan, tizimli xarakterga ega bo'lgan ob'ektiv jarayon sifatida e'tirof qilinmoqda. Ushbu fenomen natijasida ijtimoiy hayot sub'ektlari yanada ko'proq bog'lanib, o'zaro aloqadorligi va daxldorligi ortib bormoqda [1;6-31].

Globallashuv davrida ijtimoiy ong hamda inson faoliyatining barcha shakllarida bo'lgani kabi

fan, san'at, axloq, dinning ham globallashuvi ro'y bermoqda, ularning ichki strukturasi va ijtimoiy hayotda amalga oshirib kelgan vazifalari sifat o'zgarishlarga uchradi hamda bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Xususan, bunday transformasion jarayonlar din va axloqning dinamik kategoriyasi bo'lgan adolat tamoyiliga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi o'n yilliklarda globallashuv jamiyatning barcha sohalarida, xususan, iqtisodiy, ijtimoiy, milliy munosabatlarda, madaniyat, ma'naviy, axloqiy va diniy qadriyatlar sohalarida qattiq raqobatning paydo bo'lishiga olib keldi. Global tengsizlik esa, adolatsizlik hissini paydo qiladi hamda boshqa sohalar qatori dinlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi ochiq qarama-qarshiliklarga olib keladi. Bu holat madaniy, milliy va diniy tabaqalanish, turli manfaatlar, G'arb madaniy qadriyatlari va Sharqqa begona bo'lgan xulq-atvor me'yorlarining paydo bo'lishiga olib keldi, shuning uchun insonparvarlik, adolat kabi umumbashariy axloqiy tamoyillarni amalga oshirishda muayyan to'siqlar paydo bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy adolat iqtisodiy jihatdan boy, farovon davlatlar va kambag'al mamlakatlar uchun mutlaqo boshqacha ma'noga ega. Kambag'al mamlakatlar uchun adolat, avvalo yashash vositasi uchun, ularning yashash uchun kurashidir. Boy mamlakatlar uchun esa, adolat o'z iqtisodiy farovonligini himoyalash vositasi hisoblanadi[2;120-121].

Adolat – insoniyat tarixida axloqiy, ilohiy, huquqiy hamda ijtimoiy mohiyat kasb etib kelgan. Bugungi globallashuv davri esa, ijtimoiy ong shakllari, ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi har qanday ko'rinishdagi axloqiy, huquqiy, diniy normalar tizimining transformatsiyaga uchrashiga olib kelmoqda, tezlashib borayotgan global jarayonlardan ortda qoluvchi fenomenlar tarix sahnasidan chiqib ketishi ehtimoli ham kuchaymoqda.

Shu bilan birga, adolat globallashuv davrida ham insonlar o'rtasidagi aloqalarni, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim o'rin tutadi. Jumladan, dunyoda islom diniga e'tiqod qiluvchi insonlarning soni ortib borayotgan bir sharoitda, musulmon xalqlarida adolat ham diniy, ham dunyoviy qadriyat darajasida e'tirof etilmoqda. Zamonaviy islom, aqidaviy masalalardan tashqari, ko'plab masalalarda transformasion jarayonlarni o'z boshidan kechirmoqda, globallashuv tufayli umuminsoniy mezonlarni qabul qilmoqda yoki

o'zining axloqiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy hayotni tartibga soluvchi normalarini, xususan adolatni ham, global me'yorlar yordamida barcha insonlar uchun xos bo'lgan umumbashariy normalarga aylantirmoqda. Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, adolat ma'no jihatidan juda keng, qolaversa ko'proq sub'ektiv omillarga asoslansada, mohiyatan axloq va siyosatga birdek daxldor tamoyil hisoblanadi. Shuning uchun, zamonaviy musulmon jamiyatlarida adolat tamoyilining ahamiyati, o'rni haqida fikr yuritganda, axloq va siyosat nuqtai nazaridan yondashish o'rinlidir.

Musulmon jamiyatlari globallashuv jarayoniga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga intilishlari sir emas. Lekin, globallashuvning muqarrar ekanligi, uning ta'sir-oqibatlaridan qochish yoki berkinishning imkoniyati yo'q ekanligini musulmon jamoalari yetakchilari, ulamolari ham yaxshi anglashadi. Ular o'z e'tiborini globallashuv bilan bog'liq muammolarga nisbatan yagona munosabat orqali, uning salbiy oqibatlarini maksimal darajada kamaytirishga yo'naltirishgan. Masalan, Eron, Pokiston yoki Arab mamlakatlarida globallashuvning ijtimoiy ongga ta'siri eng avvalo alohida milliy, madaniy va diniy sub'ektlar uchun ijtimoiy adolat, ularning mustaqilligi va o'ziga xosligini hurmat qilish kabi tamoyillar kirib kelishi bilan namoyon bo'lgan edi [3;67-78].

Adolat tamoyilining turli zamonaviy musulmon jamoalarida anglanishi va turmush tarzida aks etishi bir-biridan farq qiladi. Bu esa, ushbu jamoa shariatning qaysi mazhabi, islomdagi qaysi oqimga tegishli ekanligi, o'ta konservativ, fundamentalistik yoki liberal xarakterda ekanligi, siyosiy muhitning holati, hatto geosiyosiy joylashuvi bilan ham bog'liq. O'ta konservativ, diniy fundamentalistik kayfiyatdagi jamoalar uchun adolat tamoyilining yagona mezonini ushbu jamoaning huquq va manfaatlarini hisoblanadi. Diniy ekstremistik guruhlarining rahbarlari ham ularning asl maqsadi mamlakatda yoki butun dunyoda adolatni ta'minlash ekanligini ta'kidlashadi. Ular nazaridagi adolat tor ma'noda, faqatgina ushbu guruhning manfaatlarini nuqtai nazaridan anglashilgan bo'lib, adolatning asosiy tarkibiy elementlari hisoblangan tenglik, mo'tadillik, birdamlik yoki rahbarlarga bo'ysunish buzib talqin etiladi. Aksariyat holatlarda, bunday guruhlar talqin qilayotgan adolatda axloqiy yoki diniy mazmunga emas, siyosiy mazmunga e'tibor qaratiladi, adolatning axloqiy va diniy jihatdan barcha insonlarning alloh oldidagi tengligi

tamoyili guruhning boshqa insonlar, hatto, boshqa musulmonlardan ham ko'ra afzalligi tamoyili bilan almashtiriladi.

Bugungi islom dunyosi ushbu kichik guruhlardangina iborat emas. Musulmonlarning aksariyat qismini tashkil etuvchi yo'nalishlar – sunniylik va shialikda adolat tamoyili barqaror taraqqiyotning asosiy sharti sifatida talqin etiladi. Masalan, bugungi kunda Eron Islom Respublikasida shialik sunniylikka nisbatan konservativroq va reaksiyroq ko'rinsada, aynan adolat tamoyili shia musulmonlari uchun iymonning asosiy odil tamoyili sifatida e'tirof etiladi. Dinshunos olim Rizo Ostadiy bunga quyidagicha izoh beradi: "Shialar adolatni dinning ikkinchi tamoyili deb hisoblaydilar... biz yashayotgan dunyo adolatga asoslangan bo'lib, bu dunyoning Yaratuvchisi o'z bandalarini bu foniy dunyoda adolatda yashashga hamda zulm va zo'ravonlikdan qochishga buyuruvchi odil Hakamdir"[4;78-79].

Sunniylik yo'nalishida ham adolat ilohiy qoida sifatida qabul qilingan. Aksariyat sunniy jamoalari yashaydigan davlatlar sekulyar rivojlanish yo'lini tanlagan. Masalan, Turkiya, Markaziy Osiyo davlatlari. Mamlakatdagi siyosiy faoliyat yo'nalishidan qat'iy nazar sunniylikning barcha mazhablariga e'tiqod qiluvchi musulmonlar jamoalari uchun adolat tamoyili oliy ilohiy tamoyil, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy ideal sifatida qabul qilinadi.

Globallashuv davrining xarakterli xususiyatlaridan yana biri – uning ta'sirida boy mamlakatlarning yanada boyib borishi, kambag'al davlatlarning esa yanada qashshoqlashishi ehtimolining oshishidir. Davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar, xususan, Yaqin Sharqdagi uzoq yillardan buyon davom etayotgan konfliktlarga asosiy sabab sifatida G'arb tadqiqotchilari tamaddunlarning to'qnashuvini ko'rsatishadi. G'arbdagi xristian sivilizatsiyasining rivojiga asosiy to'siq sifatida islom dini ko'riladi va uning har qanday ko'rinishi muammo sifatida qabul qilinadi. Masalan, G'arb uchun Eron Islom Respublikasi va terroristik tashkilot sifatida e'tirof etiluvchi "Al-Qoida" tashkiloti o'rtasida deyarli farq mavjud emas. G'arbdagi shakllangan ushbu yondashuv amerikalik siyosatchi Samuel Xantingtonning "Tamaddunlar to'qnashuvi" nazariyasiga tayanadi[5;36-46]. G'arbdagi shakllangan bu g'oya global jamiyatda kuchli rezonans holatini vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Chunki ushbu mafkura – ya'ni G'arb boshidagi har qanday kulfatning asl sababi islom

deb qarovchi islomofobiya global taraqqiyotga, sivilizatsiyalararo hamkorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq Sharqdagi musulmon davlatlarida siyosiy hokimiyat vakillari tomonidan bu tamoyil, tamaddunlarning muloqoti va hamkorligiga nisbatan yondashuv G'arbnikidan tubdan farq qiladi. Bunga asosiy sabablardan biri esa, islom dinining axloqiy tamoyillari, xususan, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy adolatning bugungi musulmon jamiyatlari uchun ilohiy mazmunga ega ekanligi, ham diniy, ham dunyoviy ideal sifatida talqin etilishi hamda mafkuraviy darajada e'tirof etilganligidir. Islom dini ta'limotiga ko'ra, alloh insonlarga adolatni o'rgatgan hamda bu tamoyil turli dinlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarning asosi bo'lishi talab etiladi[6;]. Ushbu fikrni davom ettirgan tarzda aytishimiz mumkinki, global jamiyat uchun adolat boshqa din vakillari, boshqa sivilizatsiya va madaniyatlar bilan munosabatlarni tartibga soluvchi mezon hisoblanadi. Unga amal qilish, diniy bag'rikenglikni ta'minlash – din arkonlariga bo'ysunish sifatida talqin etiladi.

Mutaxassislarning fikricha, islom azaldan siyosat va dinni bir-biridan keskin ajratmaydi, diniy va siyosiy hokimiyatni uzviy bog'liq deb qaraydi. Aynan shuning uchun ham islom dinini ba'zida siyosiy qilishgan din sifatida e'tirof etiladi[2;121]. O'z navbatida bugungi kunda eng dunyoviy jamiyatlar sifatida e'tirof etiluvchi Yevropa mamlakatlarida ham siyosiy tizim, siyosiy mafkura va ideallarning asoslari u yoki bu darajada nasroniylik diniga borib taqaladi. Boshqacha qilib aytganda, Yevropa sivilizatsiyasi uchun ham diniy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, dinlar mehr-oqibat, muhabbat, rahm-shavqat, insoniyatga va tabiatga hurmat, va albatta, adolat kabi axloqiy tamoyillarni shakllantiradi. Aynan shu tamoyillar sivilizatsiyalar va dinlarni birlashtirib, ular o'rtasidagi yakdil muloqotni ta'minlashga yordam beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan ijtimoiy axloqiy tamoyillar ichida, hech shubhasiz, adolat tamoyili global makonda turli din vakillarining hamjihatlikda yashashlariga xizmat qiladi. Chunki adolat faqatgina diniy me'yor emas, u siyosiy, huquqiy, axloqiy jihatdan ham insonlarning hayotini tartibga solib turuvchi universal mezon hisoblanadi. Qolaversa, aynan adolat tamoyili bugungi kunda eng ko'p e'tiqod qiluvchilarga ega bo'lgan nasroniylik va islom dini uchun muhim qadriyat hisoblanadi. Masalan, Islom dini uchun adolat – ilohiy tamoyil, dinning ajralmas, g'oyat

muhim komponenti. Islomning muqaddas manbai bo'lgan Qur'oni Karim va hadislarda adolatli bo'lish talabi ko'p marotaba ta'kidlangani, buning dalilidir.

O'z navbatida, xristianlik dinining muqaddas kitobi hisoblangan Injilda ham adolat tushunchasiga tez-tez murojaat qilingan, ba'zi o'rinlarda ushbu tushuncha "haqiqat" tarzida ifodalangan [2;122] va xristianlik dinining ham asosiy tamoyillaridan biri sifatida talqin etilgan. Ikki dinda ham oliy darajada e'tirof etiluvchi adolat tamoyili bugungi global dunyoda tinchlik, barqarorlik, o'zaro hamkorlik va hamjihatlikni ta'minlashda asosiy o'rinni egallashi shubhasiz. Faqat ushbu tushuncha bo'yicha yakdil xulosaga kelish, barcha uchun umumiy bo'lgan adolat konsepsiyasini ishlab chiqish zarurdir.

Hozirgi davrda islom butun dunyo xalqlari, xususan, musulmonlar uchun ham adolat tamoyilining qaror topishiga harakat qilmoqda. Bu maqsadga erishish uchun turli xalqaro islomiy tashkilotlar tuzilmoqda, xalqaro shartnomalar, huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda. Shunday hujjatlardan biri "Butunjahon inson huquqlari islom deklaratsiyasi" bo'lib, u Yevropa uchun Islom kengashi tomonidan tayyorlangan va 1981 yil 19 sentyabrda Parij shahrida imzolangan. Butunjahon inson xuquqlari islom deklaratsiyasida e'lon qilingan inson huquqlari va asosiy erkinliklari Qur'onga, shariatga va ular bilan bog'lik qonun hujjatlariga asoslangan. Ushbu deklaratsiyaning IV bobi "Adolat huquqi" deb nomlanib, uning tarkibidagi 5 ta modda islom va xalqaro huquqning adolat tamoyili bilan bog'liq munosabatini umumlashtirgan. Xususan, ushbu bobda har kim o'ziga nisbatan qonunga va faqat qonunga muvofiq munosabatda bo'lishni talab qilishga haqli ekanligi, adolatsizlikka qarshi norozilik bildirish har bir odamning nafaqat huquqi, balki burchi ekanligi, har kim boshqa har qanday shaxs yoki butun jamoa huquqlarini himoya qilishga haqliligi, hech kim o'zining shaxsiy yoki jamoaviy huquqlarini himoya qilishga intilishi uchun kamsitilishi mumkin emasligi hamda har bir musulmon qonunga zid buyruqni bajarishdan, u kim tomonidan berilganidan qat'iy nazar, bosh tortishga haqli ekanligi belgilab qo'yilgan [8].

Islomdagi adolat tamoyilining bugungi global dunyoda nafaqat siyosiy yoki huquqiy hayotda, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ham ahamiyati ortib borayotganini ta'kidlash mumkin. Bugungi kunda "Islom moliyasi" va uning asosiy normalarida aks etgan adolat prinsipi butun

dunyoda e'tirof etilmoqda. Savdo va tadbirkorlik islom uchun eng oliy hamda mas'uliyatli faoliyat sohalari hisoblanadi. Iqtisodiyotdagi adolat tamoyili birovning molini yemaslik, sudxo'rlikka yo'l qo'ymaslik, savdoda aldamaslik, tarozidan urmaslik, mahsulot yoki xizmatga insof bilan narx belgilash, boyligi ma'lum miqdorga yetganidan keyin mol-mulkining bir qismini kambag'allarga zakot, ehson, sadaqa tarzida berish kabi iqtisodiy faoliyatdagi diniy va axloqiy talablar tarzida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Umumiy qilib aytganda, adolat tamoyilining, xususan islom dinidagi adolat qoidalarining dunyoning hozirgi ma'naviy manzarasidagi o'rni ortib bormoqda. Adolat avvalo, insonlarni bir-biriga nisbatan teng munosabatda bo'lishni talab etuvchi, baholovchi axloqiy kategoriya, ma'naviy dunyosining ajralmas qismi bo'lib kelmoqda. Bu esa, global dunyoning yanada barqaror, hamjihat bo'lishini ta'minlashga xizmat qilaveradi. Islomiy adolat tamoyili musulmonlarning boshqa din vakillari bilan baxtli, tinch-totuv, hamjihatlikda yashashlari, ularni hurmat qilishlarining axloqiy, ma'naviy, g'oyaviy asosi hisoblanadi. Shu sababli, adolat tamoyili diniy hamda dunyoviy jihatdan global dunyo jipsligini, jahon hamjamiyatining barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi muhim qadriyatga aylanib bormoqda.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гринин Л.Е. Глобализация и национальный суверенитет // История и современность. – 2005. № 1. С. 6-31.
2. Кудряшова М.С. Справедливость как высшая ценность: ислам в современном диалоге цивилизаций // Ислам в современном мире. – 2015. № 2. С. 120-122.
3. Сеидова Г.Н. Ислам и глобализация: за и против // Век глобализации. 2013. №1. Ст. 67-78.
4. Реза Остади. Основные принципы религии для всех. Кум: Ахл-е бейт, 1993. Ст. 78-79.
5. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций/ пер. с англ. Т.Велимеева, Ю.Новикова. – М.: «Издательство АСТ», 2003. С. 36-46.
6. Выступление Председателя Совета муфтиев России муфтия шейха Равиля Гайнутдина на Всемирном саммите религиозных лидеров [Электронный ресурс] // URL: http://www.religare.ru/2_31124.html
7. <https://www.worldislamlaw.ru/?p=2671>